

ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

Qarshi davlat universitetining
Pedagogika instituti
o'qituvchisi M.G'.Mo'minova

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy til asoschisi Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, "Muhokamat ul-lug'atayn" asari xususidagi fikrlarimiz va lakuna hodisasi, ta'rifi, bu hodisaning ilk marotaba "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida yoritib o'tilganligi haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: "Muhokamat ul-lug'atayn", turkiy, sart (fors-tojik), lakuna, bo'shliq, madaniy bo'shliq, lakunar birlik, gender farq, tilshunoslik.

Alisher Navoi's views on linguistics

Karshi State University
Pedagogical institute
teacher M.G.Muminova

Annotation: In this article, the views of Alisher Navoi, the founder of literary language, on linguistics, our thoughts on the work "Muhokamat ul-lug'atayn" and the lacuna phenomenon, description, the first coverage of this phenomenon in "Muhokamat ul-lug'atayn" mentioned.

Keywords: Muhokamat ul-lug'atayn, Turkish, Sart (Persian-Tajik), lacuna, space, cultural space, lacunar unity, gender difference, linguistics.

Kirish. Mazkur tadqiqotni shakllantirishda turkiy so'zlarning tahlil manbalari, "Muhokamatul-lug'atayn"ning hozirgi o'zbek adabiy tiliga Q. Sodiqov tomonidan amalga oshirilgan tabdili, darslik, o'quv qo'llanmalariga tayanildi. So'z ma'nolarini izohlashda "Navoiy asarlari lug'ati" (1972), "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati" (1993-1995), "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2006-2008), "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (2000), "O'zbek tilining turkiy qatlami" (2002) hamda o'zbek tili tarixi, tarixiy leksikologiya borasidagi dissertatsiya va avtoreferatlar, qo'llanmalar, maqolalardan foydalanildi.

Asosiy qism. Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilan hissa qo‘shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Bu boradagi xizmatlaridan biri 1499-yilda yaratilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asaridir. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini umrining so‘nggi yillarida (hijriy 905)da yozdi. Mazkur asarida qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga egaligini isbotladi. Sharq musulmon adabiyotidagi an’anaga ko‘ra, hamd va na’t qismlaridan keyin Navoiy dunyo tillaridan uchtasi (turkiy, forsiy va hind) asl va mo‘tabar bo‘lib, ularning vujudga kelishi Nuh payg‘ambarning o‘g‘illari: Yofas (turkiy), Som (forsiy) va Hom (hind) bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Turkiy tilni Yofas orqali payg‘ambirlik toji bilan ulug‘lanadi deb yozadi.

Navoiyning fikricha, arab tili bunday ulug‘lanishga muhtoj emas, hech shubhasiz, u barcha tillardan mumtoz va “mo‘jizatirozdir”, chunki Allohning kalomi va rasuli akram hadislarini shu tilda yaratilgan. Alisher Navoiy ikki tilni qiyoslash jarayonida forsiy tilning kuchli bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi, zero, obyektiv xulosalar chiqarish uchun ikki tilni ham mukammal bilmoq talab qilinadi. Bu mukammalik Navoiyning:


- forsiy tilda muodil (ekvivalenti)ni bo‘lmagan 100 ta fe’lni keltirishi;
- turli sohalarga doir narsa-buyum, tabiiy hodisalar va hayvonlarning forsiy tilda mavjud bo‘lmagan nomlarini berib, ularning ba’zilari forsiy til leksikasi tarkibiga ham kirgani haqida ma’lumot berishi;
- tajnis va iyhom san’atiga asos bo‘ladigan so‘zlarning forsiy tildagiga nisbatan ko‘pligini misollar bilan isbotlashi;
- turkiy tilda forsiy tilda yo‘q ba’zi grammatik shakllar (masalan, birgalik nisbatini yasovchi -ish, ortirma nisbat yasovchi -t qo‘shimchalari)ning mavjudligini misollar bilan dalillashi;
- turkiy tilning fonetik xususiyati qofiyadosh so‘zlar uchun fors tiliga nisbatan qulayligini asoslab berishi bilan bog‘liq holatlarda ko‘rinadi.

Shuningdek, asarda Alisher Navoiyning ijodiy biografiyasi bilan bog‘liq qimmatli ma‘lumotlar ham keltirilgan. Xususan, turkiy tilda yaratgan asarlari ro‘yxati ularga asos bo‘lgan anbalar nomi bilan keltirilishi Navoiy asarlarining tub mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy turkiy tilning imkoniyatlarini tavsifiy, qiyosiy, tahliliy usulda ko‘rsatib bergan. Yuqorida aytganimizdek, Navoiy ushbu yondashishini 100 turkiy so‘zni izoh sifatida keltirish bilan oydinlashtiradi. U so‘zlarning bir qismini she‘riy o‘rnaklar bilan izohlab, u ifodalaydigan tushuncha va ma‘nolarningforschada yo‘qligi, bu tushunchani ifodalash kishining murakkab so‘z yo iboralardan foydalanishga majbur bo‘lishini ko‘rsatadi. Ya‘niki, Navoiy ikki tilni solishtirar ekan, turkiy tildagi ayrim tushunchalarning sart (fors-tojik) tilida ifodalanmasligi, madaniy bo‘shliq hosil qilishi xususida fikr yuritadi.

- *Va xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki, **qabog‘** derlar, forsiyda bu uzvning oti yo‘qtur.*
- *Va husn ta‘rifida ulug‘roq holg‘akim, turklar meñ ot qo‘yupturlar, ala rot qo‘ymaydurlar.*
- *Yana bir adolari borki, ba‘zi alfozning so‘ngg‘ida “**ch, i**” ki, “**chi**” lafzidur, orttururlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo‘qtur, balki alar ham turkcha ayturlar. ...Andoqki, qush hunarida dag‘i bu istiloh bordur, andoqki, **qozchi** va **quvchi** va **turnachi** va **kiyikchi** va **tovushqonchiki**, sort lafzida yo‘qtur. Va alar mazkur bo‘lg‘onlarning ko‘pi turkcha ayturlar.ⁱ*

Lakuna – “nomlanmagan tushunchalar”. Fransuz tilidan olingan ushbu termin “bo‘sh joy”, “chuqurlik”, “bo‘shliq”, “bosh katak” singari m‘nolarni anglatadi.



Ushbu lingvistik termin XX asrning 70-8-yillaridan boshlab qoʻllana boshlanganligi qayd etilgan. Lekin aslida hodisa ilk bor Alisher Navoiy tomonidan izohlangan. Fors-tojikcha “xoʻrdan” soʻziga turkiy “ichmoq” muqobil boʻlsa, “yemoq” lakunar birlik hisoblanadiva fors-tojik tilida lakunani hosil qiladi, yaʼni tushunchaning mavjudligi, ammo soʻz bilan ifodalanmasligi maʼlum boʻladi. “Simirmoq”, “sipqormoq”, “hoʻplamoq”, “tomshimoq” – lakunar birliklar, bu soʻzlar orqali ifodalangn tushuncha fors-tojik tilida nomlanmaganligi uchun lakuna (“boʻsh joy”, “boʻshliq”)ni yuzaga keltirdi.

Oʻrdakning *joʻrka, erka, suqtur, olmabosh, choqirqanot, temurqanot, aldaldagʻa, olapuka, bogʻchol* kabi yetmish turini ifodalovchi turkiy soʻzlar muqobili sart tilida yoʻqligi, leksemalarda gender farqlarning ifodalanmasligi, ularning barchasi uchun birgina murgʻabi soʻz ishlatilishi qayd etilgan: “...anda muqarrar va mashhur ilbosun oʻrdakdur. Va sort el *ilbosunni* xud bilmas. Togʻi turk oʻrdakning erkagin *“soʻna”* va tishisin *“boʻrchin”* der. Va sort munga ham ot qoʻymaydur. Va nar va moda ikkalasin *“murgʻobi”* der.ⁱⁱ

Xulosa qilib aytganda, ushbu lingvistik hodisani aslida Alisher Navoiy birinchilardan boʻlib izohlagani va leksemalar asosida isbotlaganini “Muhokamat ul-lugʻatayn” asar orqali koʻrishimiz mumkin ekan. Lakuna hodisasi ikki til doirasida ham, bir til doirasida ham (adabiy til va sheva oʻrtasida) kuzatiladi. Masalan, shevadagi “idramoq” lakunar birligi adabiy

tilda lakunanin hosil qiladi. Adabiy tildagi lakuna shevalar asosida bartaraf etilsa, tilning lug‘at qatlami boyiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент, 1967.
2. “Navoiy asarlari lug‘ati” (1972)
3. “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” (1993-1995)
4. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008)
5. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (2000)

ⁱ Навоий А. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент, 1967. 105 б.

ⁱⁱ Навоий А. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент, 1967. 115 б.